

***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***  
**KO'RSATMALILIK-TA'LIMNING OLTIN QOIDASI**

***Nazarova Nigora Ravshanovna***

*Osiyo texnologiyalar universiteti o'qituvchisi.*

***Musurmonova Sitora Amir qizi.***

*Osiyo texnologiyalar universiteti 2-bosqich talabasi.*

*Har qanday ta'lim va tarbiyada eng asosiy  
omil — muallim, uning tafakkur dunyosidir.*

**A.Disterveg**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lim jarayonida ko'rsatmalilik tamoyilining o'rni, uning avzalliklari haqida so'z boradi. Shu bilan birgalikda jahon pedagogikasi rivojiga hissa qo'shgan pedagoglarning bu tamoyil haqida keltirib o'tgan fikrlari va Sharq mutafakkirlarining didaktik qarashlari umumlashtirilib, bugungi tanlagan mavzuyimizning necha asrlar o'tsada o'z ahamiyatini yo'qotmaganligi , hamda kelajak avlodning barkamol shaxs sifatida rivojlanishida kata o'rin egallashi haqida to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Didaktika, ko'rgazma, onglilik, pedagogik mahorat, ta'lim, tarbiya, tamoyil, sezgi, idrok.

Shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi davr ,inson hayotida ta'limning o'rni nechog'lik yuksak ekanligini takror va takror isbotlab bermoqda,

Ta'lim va tarbiya, bir –biridan ajratib bo'lmas , birini ikkinchisisiz tasavvur etib bo'lmas darajadagi tushunchalardir. Aynan shu ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etish, mahoratli pedagogka xos bo'lgan hislatlardan biridir.

Biz bugun dars jarayonlarini tashkil etar ekanmiz, biz ko'rgan, o'zimiz o'rgangan turli xil metodlardan va vositalardan foydalanishga harakat qilamiz .

Albatta bu dars jarayonining sifatlari va samarali bo'lishiga yordam beradi.

Ta'limda ma`no-mazmunini tushunmay, og'zaki yodlash o'quvchi uchun

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

foydalı emasdir. Shu bilan birgalikda «Aql-idrok bilan yaxshi tushunib olingen narsadan boshqa hech bir narsani zo`rlab yodlatmaslik lozim». O`quvchilar «O`rganilayotgan narsa kundalik hayotda qanday foyda yetkazishini o`qituvchi yordamida anglab olishlari kerak. Hodisalarning sabablarini anglatish , har bir narsani to`la tushuntirib bo`lguncha, shu narsa ustida to`xtalmoq o`qituvchining vazifasidir » Oynani qanchalik chang bosgan bo`lsa ham, baribir kishi o`z aksini ko`rishi mumkin, albatta, toza oyna kishi aksini toza ko`rsatadi. O`qituvchining vazifasini o`sha oynadagi changni artib tashlash, ya`ni bilimni bola ongiga yetkazish, aqliy tomondan o`stirishdir, degan edi Yan Amos Komenskiy. Yuqorida keltirib o'tilgan fikrlarga izoh sifatida Komenskiyning «Buyuk didaktika» asarida aytib o'tilgan, mакtabda o`qitish tizimini amalga oshirishdagi didaktik tamoyillar haqida qisqacha mulohaza yuritishni lozim topdik . Va bu tamoyillar quyidagilar.

1. Ko`rsatmalilik tamoyili;
2. Onglilik tamoyili;
3. Izchillik va tizimlilik tamoyili;
4. Mashq qilish, bilim va malakalarni puxta egallash tamoyillari.

Ko`rsatmalilik tamoyili —bu o`qitishning „Oltin qoidasi” dir. Bu tamoyilda faqat ko`rsatib o`qitish usul tariqasida emas, balki barcha sezgi organlarni narsa va hodisalarni asosli va yaxshi o`zlashtirib olishga jalb etish vositasi tariqasida qo'llanilishi lozimdir.

Ta'lim jarayonlarida bolaga real narsalarni ko`rsatish, dunyonи rasmlar orqali tushuntirish, narsalar modelini ko`rsatish, o`qituvchining so`zi yani narsa va hodisani, borliqni obrazli tasvirlay olishi ko`rsatmalilik tamoyilining umumiy ko`rinishini o`zida mujassamlashtiradi. Bundan tashqari har bir olib borilayotgann ta'lim jarayonida o`qitilayotgan, o`rganilayotgan narsalarni ushslash, ko`rish, yejish, hidlash kerakligi ham ko`pgina pedagog olimlar tomonidan ta'kidlab o'tilgan bu esa o`rganilayotgan materialni chuqur o`zlashtirilishiga hamda esda uzoq vaqt saqlanishiga olib keladi.

Atoqli nemis pedagogi Fridrix Vilgelm Adolf Distervegning fikricha esa boshlang'ich maktabda o`quvchilarni o`qitilgan materialni o`zlashtirish ustida

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

mustaqil ishlay oladigan qilishga, ularda buning uchun malaka hosil qilish, ularning aqliy kuch va qobiliyatlarini o'stirishga asosiy e'tibor berilishi zarurligi ta'kidlanadi. Bundan tashqari pedagog ko'rsatmali o'qitish yo'li bilan bolalardagi barcha sezgi organlarini o'stirishga alohida e'tibor berishi lozim . Avvalo tabiatga uyg'un tarzda bola idrokining xususiyatlariga muvofiq o'qitilishi, misollardan qoidalarga, buyumlar va bu buyumlar to'g'risida aniq tasavvurlardan shu buyumlarni ifodalovchi so'zlarga o'tishni taklif qiladi. U bolalarni ularning sezgi organlari bevosita his qila oladigan buyumlar bilan tanishtirishga juda katta ahamiyat berish bilan bir vaqtda, bolaning o'z sezgi organlari bilan idrok qilayotgan butun materialni o'ylab ko'rishi va anglab olishi zarurligini uqtirib o'tdi. Disterveg taklif qilgan ko'rsatmali ta'lim "uzoqqa", "oddiy narsalardan murakkab narsalarga", "osonroq narsalardan, qiyinroq narsalarga", "ma'lum narsadan, noma'lum narsaga" o'tish kerak degan qoidalalar bilan bog'langan ta'limdir. O'z davrida Komenskiy ta'riflab bergan bu qoidalarni Disterveg yanada taraqqiy ettirdi, pedagog bu qoidalarni formal ravishda qo'llanmasligi kerak, deb xaqli ravishda ogohlantirdi.

Buyuk mutafakkir bobomiz Abu Rayhon Beruniy takidlaganidek : O'quvchiga bilim berishda: - o'quvchini zeriktirmaslik; - bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o'rgatavermaslik; - uzbekistik, izchillik; - tahlil qilish va taqqoslash; - ma'lumdan noma'lumga, yaqindan uzoqqa, soddadan qiyingga qarab borish; - takrorlash; - yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko'rgazmali bayon etishga e'tibor berish kerakdir.

Ta'limning ko'rsatmalilik tamoyili o'quv materiallarini aniq obrazlar orqali bevosita ta'lim oluvchilarining idrok qilishlarini ta'minlashga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.Zotan ko'rsatib,anglatib,tahlil va sintez qilib,amaliy sur'atda ishlatib berilgan bilim, ko'nikma va malakalar ta'lim oluvchilar ongida tezroq singadi, xotirasida uzoq saqlanadi.

Har qanday jarayon - harakatdir, rivojlanishdir, moddiy dunyodagi narsalar yoki hodisalarining asta- sekin o'zgarishidir.

Fikrimiz so'ngida Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning ushbu fikrlarini

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

keltirib o'tmoqchimiz „Fanlarini o'qitishda ko'rgazmali va tarqatmali materiallardan foydalanish, ta'lim oluvchilarning pedagogik yoki psixologik muammolarga oid bilim, ko'nikma va malakalarni oshirishda, hamda ularga oid muammolarning yechimini topishga katta yordam beradi. Va shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishlariga bog'liqdir”.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik - T.: SANO-STANDART, 2017
2. Ro'ziyeva D.I., Tolipov O'.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T.: INNOVATSIYA-ZIYO, 2019.
3. O'.Z.Yo'ldoshev. Umumiy pedagogika. Fan va texnologiya.2019
4. Xalikov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik. - Toshkent, Iqtisod moliya, 2012
5. Mutualipova M.J., Xodjayev B.X. Qiyosiy pedagogika. Darslik. - T.: TDPU, 2015.
6. S.T.Turg'unov ,L.A.Maqsudova va boshqalar "Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish,sifat va` samaradorligini oshirish texnologiyalari" T. 2014